

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 14 avgust 2025 yildagi 3-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan. IXT-133

Amal qilish muddati 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Endokrinologiya			
O'quv dastur nomi	“Operativ endokrinologiya”			
O'qish turi	Ixtisoslashtirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Raximova G.N., Djurayeva A.SH., Axrorov K.U., Alimdjanov N.A.			
Siklning umumiy soati	720 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d., professor Raximova G.N.	t.f.n, dotsent Xaydarova R.T.	t.f.n., dotsent Djurayeva A.SH.	assistent Axrorov K.U.	t.f.n., assistant Alimdjanov N.A.
				
t.f.d., dotsent Narimova G.D.	t.f.d., dotsent Muratova Sh.T.			
Maqsad	Shifoklarning professional kompetensiyalarinin takomillashtirish asosida endokrinologiyaning gipotalamo - gipofizar tizim kasalliklari, qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari, buyrak usti bezlari kasalliklari va jinsiy bezlarning kasalliklari jarroxlik muamolari kelib chiqish sababini va holatlarini erta aniqlash, mahoratini oshirish, samarali davolash, profilaktika tadbirlarinii amlaga oshirish bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, o'rgatish va shakllantirishdan iborat.			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Umumiy va bolalar jarrohlari, onkologlar, neyroxirurglar, shoshilinch tibbiyot bo'yicha mutaxassislar va endokrin statsionarlarda ishlaydigan jarrohlr			
Sikl vazifalari	- gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklarining zamonaviy			

	tashhis va standartlar bo'yicha davolash usullarini o'rganadilar, qiyosiy tashhis mezonlari, gipotalamo - gipofizar kasalliklarining onkologik va boshka jarroklilik patologiyasi o'ziga xos kechishi bo'yicha bilimlarni shakllantiradilar; - qandli diabet va diabetik to'piq sindromi tashhisini yangi klassifikatsiyalar asosida shakllantirishni, klinik protokollar asosida davolash bo'yicha nazariy bilimlarini shakllantirish, kiritilgan o'zgarishlarni amaliyotga tadbiq eta olishni va yangilangan, takomillashgan davolash usullarini qo'llashni o'zlashtiradilar va zamonaviy tibbiy yordamni ko'rsata olish, standart ko'nikmalarni takomillashtirishda bor bilimlarini chuqurlashtiradilar; - qalqonsimon bez va qalqon oldi bezlari jarrohlik kasalliklari tashhisida yangi klassifikatsiyalarni qo'llash, klinik protokollar asosida davolash bo'yicha nazariy bilimlarini shakllantirish, zamonaviy va xalqaro tavsiyalar asosida yangilangan va takomillashtirilgan tashhishlash va davolash usullarini amaliyotga tadbiq eta olishni va qo'llashni o'rganadilar; - buyrak usti bezi, uning kasalliklari va o'smalarining haqidagi bilimlar shakllantiriladi, xalqaro va yangilangan tasnifi asosida tashhis va zamonaviy davolash usullarini amaliyotga tadbiq etish bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi va uning amaliyotda qo'llashni o'rganadilar; - jinsiy bezlarning jins va yoshga bog'liq xosliklari haqidagi bilimlar shakllantiriladi, kasalliklarni tashhishlash va qiyosiy tashhishlash, zamonaviy va xalqaro standart va tavsiyalarga binoan davolash usullari, ba'zi jinsiy bez kasalliklarini jarrohlik yo'li bilan davolash bo'yicha bilimlar va amaliyotga tadbiq etish
Sikl tarkibi	1modul. O'zbekistonda endokrinologik xizmatining rivojlanishi 2 modul. Gipotalamo- gipofizar tizim kasalliklarini tashhishlash va davolashning zamonaviy asoslari 3 modul. Qalqonsimon va qalqonsimon oldi bezlarning xastaliklari 4 Modul. Qandli diabet va "Diabetik to'piq" sindromi. 5 Modul. Buyrak usti bezi kasalliklarining muammolari 6. Modul. Jinsiy bezlarni jarroxlik kasalliklari
O'qish bazalari	Akad. Yo. X. Turakulov nomidagi RIEIATM 